

Hujjat yangi tahrirda qabul qilingan

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### **“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARISHLAR VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA**

#### **LexUZ sharhi**

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-dekabrda O'RQ-591-sonli “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuniga asosan yangi tahrirda qabul qilingan.

#### **LexUZ sharhi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 29-avgustdagi 525-II-sonli “Yangi tahrirdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida”gi Qaroriga asosan mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilgan.

1993-yil 6-mayda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 5, 202-modda) o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinmoqda).

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2003-yil 29-avgust,  
524-II-son

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI TO'G'RISIDA**

(yangi tahriri)

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

#### **1-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi — O'zbekiston Respublikasining Hukumati — O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (bundan buyon matnda Vazirlar Mahkamasi deb yuritiladi):

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi;

2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

3) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

6) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

*(1-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-apreldagi O'RQ-367-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 16-son, 177-modda)*

## **2-modda. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining huquqiy asoslari**

Vazirlar Mahkamasining faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## **3-modda. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplari**

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

## **II. VAZIRLAR MAHKAMASINING TARKIBI VA UNI SHAKLLANTIRISH, UNING ASOSIY VAKOLATLARI**

### **4-modda. Vazirlar Mahkamasining tarkibi va uni shakllantirish tartibi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri (bundan buyon matnda Bosh vazir deb yuritiladi), uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

*(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-apreldagi O'RQ-367-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2014-y., 16-son, 177-modda)*

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

Agar ovoz berish vaqtida Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng Bosh vazir lavozimiga nomzodni yana bir marta taqdim etish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazirning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

*(4-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-martdagi O'RQ-527-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son — 2019-yil 1-apreldan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi a'zoliciga nomzod u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mas'ul qo'mitasi, siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlarini tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi va ma'qullanadi.

Vazirlar Mahkamasi a'zosining lavozimiga nomzod uning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilayotganda va ma'qullanayotganda Vazirlar Mahkamasining harakatlar dasturi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, istiqbolga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarga erishish borasidagi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi harakatlar rejasini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi a'zoriga nomzodni rad etgan taqdirda, Bosh vazir ko'rib chiqish va ma'qullash uchun yangi nomzodni kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanganidan keyin o'z vazifalarini bajarishga kirishadi.

*(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-martdagi O'RQ-527-sonli Qonuniga sakkizinchi — o'n birinchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son — 2019-yil 1-apreldan kuchga kiradi)*

Bosh vazir va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

*(4-moddaning o'n ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-apreldagi O'RQ-367-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 16-son, 177-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini zimmasidan soqit qilish yangi shakllantirilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisi o'tkazilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Bosh vazir tomonidan yozma murojaat berish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o'zlarining majlislarida Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi to'g'risidagi tegishli qarorlarni qabul qiladi.

*(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda O'RQ-396-sonli Qonuniga asosan o'n uchinchi va o'n to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 52-son, 645-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **4<sup>1</sup>-modda. Bosh vazirni lavozimidan ozod etish**

Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

- a) Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;
- b) Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

v) Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

g) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo'lgan bunday tashabbusni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar yetakchi fraksiyalari qo'llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatida ovozga qo'yilganda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy soni uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan qabul qilingan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilgan taqdirda.

*(4<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-apreldagi O'RQ-285-sonli Qonuniga asosan "d" band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2011-y., 16-son, 160-modda)*

Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi.

*(4<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi ZRU-90-sonli Qonuni bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2007-y., 15-son, 153-modda)*

## **5-modda. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasidagi asosiy vakolatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotni isloh etish va tarkibiy o'zgartirish bo'yicha choralar ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish prognozlarini hamda eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishini va ijro etilishini tashkil etadi;

iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, texnik, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturlarini, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, eng avvalo xususiy mulkni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini strategik va iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdorlargacha qisqartirish, keng ko'lamda xususiylashtirish asosida shart-sharoitlar yaratadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar va cheklovlarni bartaraf etish, qulay ishbilarmonlik muhitini va investitsiyalash sharoitlarini yaratish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo'yicha choralar ko'radi;

O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash, bank va boshqa moliya institutlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

agrar sektorda bozor munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, meliorativ va irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, yer resurslarining sifatini saqlash va yaxshilash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

davlat boshqaruvi usullarini takomillashtiradi, shu jumladan elektron hukumat prinsiplari asosida takomillashtiradi, bozor prinsiplariga asoslangan xo'jalik boshqaruvi va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplari va usullari joriy etilishini rag'batlantiradi;

davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini, idoralarini hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa

organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;

ta'lim tizimini rivojlantirishni, uning sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, uzluksiz ta'limdan keng ko'lamda foydalanish uchun sharoitlar yaratadi, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini bajarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, aholining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzi prinsiplarini joriy etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, madaniy qadriyatlardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlashga, fuqarolarning ijtimoiy va madaniy hayotda to'la huquqli tarzda ishtirok etishiga ko'maklashadi;

ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy va pensiya ta'minoti tizimlari faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi, oila, onalik va bolalikni himoya qilishga ko'maklashadi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha choralar ko'radi;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish hamda respublika ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, yirik avariya va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish yuzasidan choralar ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, davlat chegaralarini qo'riqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnomalar tuzadi, ularni ijro etish choralarini ko'radi;

tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

*(5-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda O'RQ-396-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 52-son, 645-modda)*

## **6-modda. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga rahbarlik qilishning umumiy masalalari**

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo'naltirib boradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan ta'minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy devoni xodimlari sonini va ular ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi taqdimnomalarni tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*(6-modda O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi va beshinchi qismlar bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vazirlarning va davlat qo'mitalari raislarining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.